O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

FAN-SPORTGA

ILMIY-NAZARIY JURNAL

2026/2



ISSN: 2181 7804

FAN Sportga

ilmiy-nazariy jurnali

2026/2

Bosh muharrir
Rashid MATKARIMOV

Bosh muharrir o‘rinbosari ilmiy maslahatchi:
SH.SH. GAZIYEV

Tahrir hay’ati tarkibi:

E.T. Raxmanov
SH.S. Mirzanov
M.X. Mirjamalov
M.O‘. Arziqulov
K.F.Bayazitov,
F.K.Turdiyev,
N.J.Isakulova,
K.D.Yarashev,
D.X.Umarov,
M.S.Olimov,
A.N.Shopo‘latov,
S.B.Repkin,
A.Akbarov,
I.P.Sivoxin,
N.T.To‘xtaboyev,
I.J.Mambetnazarov,
I.B.Aliyev,
L.P.Yugay,
A.K.Eshtayev,
K.Sh.Ziyadullayev,
A.B.Jumaniyazov,
M.M.Qirg‘izboyev,
Z.Gapparov,
A.Xodjiyev,
A.U.Rashidov,
R.X.Nabiullin,
S.R.Davletmuratov,
O.E.Mamishev,
M.A.Ibragimov,
R.D.Xalmuxamedov,
B.A.Ishimov,
X.X.Atamuratov,
B.A.Satipov

Tahrir hay’ati kotibi
SH.X. Toshturdiyev

Jurnalning telegram kanali

MUNDARIJA/СОДЕРЖАНИЕ

SPORT MASHG‘ULOTLARI: TEXNIKA, TAKTIKA, USULIYAT SPORTS TRAINING: TECHNIQUE, TACTICS, METHODOLOGY ТЕХНИКА, ТАКТИКА И МЕТОДИКА СПОРТИВНОЙ ТРЕНИРОВКИ

Р.Д. Халмухамедов – Сравнительный анализ выступления сборной Узбекистана по боксу на чемпионатах мира 2025 года (Ливерпуль и Дубай). 3

Ш.Т. Исеев – Методология управления подготовкой футболистов с использованием современных технологий. 7

Sh.F. Tulaganov., J.O‘. Parpieva – “To‘p marraga” o‘yini orqali o‘quvchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirish uslubiyati. 11

Ш.Ш. Газиев., С.З. Нуруллаев – Особенности формирования и совершенствования технико-тактической подготовки в самбо и дзюдо. 16

B.A. Ishimov – Brass usulida suzuvchilarning oyoq kuchini rivojlantirish uchun mashqlar majmuasini tadqiq etish. 19

O.R. Igamberdiyev – Turli yoshdagi futbolchilar texnik-taktik tayyorgarligini baholash va boshqarishning pedagogik mexanizmlari. 22

X.M. Toshpulatov., B.B. Bakirov – Voleybolchilarda sakrash faoliyati samaradorligini oshirishda vaziyatli mashqlar asosida sakrash chidamkorligini rivojlantirish. 25

X.X. Qurbonov – O‘rta masofalarga yuguruvchilar sport mahoratini takomillashtirish bosqichi ikkinchi yilida sport formasini rivojlantirish mexanizmi. 28

G‘.N. Ernazarov., R.R. Majidov – Boks sport turi bilan shug‘ullanuvchilarda muvozanat saqlash mexanizmini tahlillari. 31

D.A. Alimova – Sportchi-talabalarini professional boksning turli jihatlariga bo‘lgan munosabatini o‘rganish natijalari. 34

A.A. Boltayev – Maxsus ish qobiliyatining sakrovchanlik komponentlari orqali voleybolchilar tayyorgarligini tahlil qilish. 39

С.А. Юнусов – Сравнительная эффективность традиционной и экспериментальной моделей тренировочного процесса у пара пауэрлифтеров высокой квалификации. 42

U.Sh. Valixonov – Maxsus tibbiy guruhlarga mansub talabalar sonining ortish tendensiyalari va sog‘lomlashtiruvchi atletik gimnastikaning optimal turlari. 45

S.E. Qodirov – Malakali dzyudochilarda maxsus kuch va tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari. 49

A.A. Yakubov – Yosh basketbolchilarning tezkor-kuch tayorgarligini differensiyali yondoshuv asosida takomillashtirish. 53

I.I. Islomov – 16–17 yoshli futbolchilarning texnik-taktik harakatlarini rotatsion mashg‘ulotlar orqali rivojlantirishning ahamiyati. 56

K.A. Yuldasheva – Yosh sportchi qizlarda disk uloqtirish natijalariga antropometrik ko‘rsatkichlarning ta’sirini statistik tahlil asosida baholash. 60

aniqlanmadi (P > 0,05). 60 m yugurish 9,7 s dan 9,8 s gacha, mokisimon yugurish 8,1 s dan 8,2 s gacha o‘zgardi. Skakalka bilan sakrash 91,0 martadan 90,5 martagacha kamaydi, turnikda tortilish 6,2 martadan 6,5 martagacha biroz oshdi. 3000 m yugurish 15,55 daqiqadan 15,42 daqiqagacha yaxshilangan bo‘lsa-da, farq ishonchli emas. Uzunlikka sakrash, egiluvchanlik va muvozanat testlarida ham kichik o‘zgarishlar qayd etilib, ularning barchasi statistik jihatdan ahamiyatsiz bo‘ldi.

Mazkur natijalar tajriba guruhida qo‘llanilgan muvozanatga yo‘naltirilgan mashg‘ulot dasturi yosh bokschilarning jismoniy, maxsus va koordinatsion tayyorgarligini sezilarli darajada oshirganini, nazorat guruhida esa an’anaviy mashg‘ulotlar bunday samarani bermaganini ko‘rsatadi.

Xulosa: Yosh bokschilar mashg‘ulot jarayonini muvozanat saqlash mashqlari asosida tashkil etish zarur ekanligi tadqiqot natijalari bilan tasdiqlandi. Maxsus ishlab chiqilgan muvozanat mashqlari dasturini qo‘llash natijasida sportchilarning jang jarayonida tanani tik va barqaror ushlab turish, zarbadan so‘ng muvozanatni tezkor tiklash, harakatlarni aniq boshqarish hamda koordinatsion qobiliyatlari sezilarli darajada yaxshilandi. Bu esa texnik-taktik harakatlar samaradorligining oshishiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi.

Tadqiqot boshida va yakunida o‘tkazilgan nazorat testlari tahlili muvozanat mashqlari joriy etilgandan so‘ng jismoniy va maxsus tayyorgarlik ko‘rsatkichlari o‘rtacha 23,07 % ga oshganini ko‘rsatdi. Ayniqsa, statik va dinamik muvozanat, tezkorlik, kuch-chidamlilik hamda fazoviy orientatsiya ko‘rsatkichlarida ishonchli ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi.

Olingan natijalar muvozanatga yo‘naltirilgan mashg‘ulot vositalarini yosh bokschilar tayyorgarligining majburiy tarkibiy qismi sifatida rejalashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Ushbu yondashuv sportchilarning funksional imkoniyatlarini kengaytiradi, jarohatlanish xavfini kamaytiradi hamda musobaqa faoliyatida yuqori natijalarga erishish uchun mustahkam asos yaratadi.

Adabiyotlar:

1. Sergeev, V. V. (2022). Vizualizatsiya v bokse. *Sportivnyy psikholog*, (12), 78–89.
2. Anderson, M. (2024). Cognitive restructuring in sports. *International Journal of Sport Psychology*, (42), 23–35.
3. Karimov, B. A. (2023). Professional boksda psixologik tayyorgarlik. *Sport va yoshlar*, (8), 45–52.
4. Ivanov, S. S. (2023). Autogen mashg‘ulot boksda. *Teoriya i praktika fizicheskoy kultury*, (15), 67–75.
5. Ernazarov, G‘. N., & Majidov, R. R. (2025). 13–15 yoshli bokschilarni psixologik tayyorgarligida musobaqadagi vahimani yengish usullari. *Fan va jamiyat*, (7), 96–98.
6. Ernazarov, G‘. N., & Majidov, R. R. (2025). 13–15 yoshli bokschilarda musobaqa oldi davrida muvozanatni saqlashni takomillashtirish usullari. *Ta’lim va taraqqiyot*, (5), 907–913.



Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
D.A. ALIMOVA[1]
[1]O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Chirchiq shahri, O‘zbekiston
https://orcid.org/0009-0001-7435-4026

10.65149/fansport.2026.v9i2.a010

SPORTCHI-TALABALARINI PROFESSIONAL BOKSNING TURLI JIHATLARIGA BO‘LGAN MUNOSABATINI O‘RGANISh NATIJALARI

Annotatsiya

В статье на основе анкетирования изучено субъективное отношение студентов и магистрантов университета физической культуры к профессиональному боксу. Результаты показали, что респонденты обладают общими знаниями о профессиональном боксе, однако испытывают потребность в более глубоких теоретических и практических знаниях в области менеджмента, организации соревнований и процессов спортивной индустрии. Также установлено, что в учебном плане специализации «Теория и методика бокса» недостаточно учебных часов, посвящённых профессиональному боксу. Полученные данные обосновывают необходимость совершенствования учебной программы и введения специальных модулей.

***Ключевые слова**: профессиональный бокс, менеджмент, студенты, магистранты, респонденты, анкетирование, учебная программа.*

Abstract

Mazkur maqolada jismoniy tarbiya universiteti talabalari va magistrantlarining professional boksga bo‘lgan subyektiv munosabati so‘rovnoma asosida o‘rganildi. Natijalar respondentlarning professional boks bo‘yicha umumiy bilimga ega ekanligini, biroq menejment, musobaqalarni tashkil etish va sport industriyasi jarayonlari bo‘yicha chuqurroq nazariy hamda amaliy bilimlarga ehtiyoj mavjudligini ko‘rsatdi. Shuningdek, “Boks nazariyasi va uslubiyati” ixtisosligi o‘quv rejasida professional boksga ajratilgan o‘quv soatlari yetarli emasligi aniqlandi. Olingan ma’lumotlar o‘quv dasturini takomillashtirish va maxsus modullarni joriy etish zarurligini asoslaydi.

***Kalit so‘zlar**: professional boks, menejment, talabalar, magistrantlar, respondentlar, so‘rovnoma, o‘quv dasturi.*

This article examines the subjective attitudes of undergraduate and graduate students of a physical education university toward professional boxing using a questionnaire survey. The results showed that respondents possess general knowledge of professional boxing but need deeper theoretical and practical understanding of management, event organization, and sports industry processes. It was also found that the curriculum of the “Theory and Methodology of Boxing” specialization allocates insufficient academic hours to professional boxing. The findings justify the need to improve the curriculum and introduce specialized modules.

Keywords: professional boxing, management, students, graduate students, respondents, questionnaire, curriculum.

Dolzarbligi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, ongi va tafakkuri sog‘lom, ma’naviy hamda jismoniy barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Bu borada qabul qilingan Farmonlar, Qarorlar va Davlat dasturlari sog‘lom avlod g‘oyasining bosqichma-bosqich umumxalq harakatiga

aylanganini ko‘rsatadi. Professional boks O‘zbekistonda 20 yildan ortiq vaqtdan buyon faoliyat yuritib, katta rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi hamda yuqori sport natijalariga erishildi. Ushbu yutuqlarda bokschilar bilan bir qatorda murabbiylarning ham hissasi beqiyosdir.

Biroq professional boksning o‘ziga xosligi sababli uning ko‘plab yo‘nalishlari amalda noldan shakllantirildi. Tashkiliy-boshqaruv masalalari hal etilib, professional boks federatsiyasi va klublari tashkil etildi. Shu bilan birga, professional boksda malakali menejerning roli juda muhim. Hozirgi vaqtda bokschilarni mahalliy murabbiylar tayyorlayotgan bo‘lsa-da, janglarni tashkil etish asosan xorijiy menejer va promouterlar tomonidan amalga oshirilmoqda. Afsuski, mamlakatimizda bunday mutaxassislarni tayyorlash tizimi yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan.

Boksning jadal rivojlanishi yosh professional menejerlarga bo‘lgan ehtiyojni oshirmoqda. Menejerlarning kasbiy tayyorgarligi murakkab jarayon bo‘lib, u maqsadni belgilash, rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiya, nazorat va axborot-tahliliy faoliyat kabi boshqaruv funksiyalarini qamrab oladi. Mavjud tadqiqotlar tahlili professional boks menejerlarini tayyorlash masalasi yetarli o‘rganilmaganini ko‘rsatadi.

Shu bois tadqiqotning dolzarbligi oliy jismoniy tarbiya muassasalarida professional bokschilar uchun menejerlar tayyorlash jarayonini optimallashtirishning ilmiy asoslangan va samarali yo‘llarini aniqlash zarurati bilan belgilanadi.

Tadqiqotning maqsadi – professional boks menejerlarini tayyorlash jarayonini optimallashtirishning samarali uslubiy yo‘llarini aniqlash.

Tadqiqot obyekti – oliy ta’lim muassasalarida professional boks bo‘yicha menejerlarni tayyorlash jarayoni.

Tadqiqot predmeti – professional boks menejerlarini tayyorlashning nazariy va uslubiy asoslari.

Tadqiqot vazifasi – talabalarning professional boksning turli jihatlariga bo‘lgan munosabatini aniqlash.

Tadqiqot usullari va tashkil etilishi. Tadqiqot vazifalarini hal etish maqsadida anketa-so‘rov usuli qo‘llanildi. Shu maqsadda maxsus anketa ishlab chiqildi. So‘rovnomada O‘zDJTSU “Boks nazariyasi va uslubiyati” kafedrasi talabalari hamda magistrantlari ishtirok etdilar. Ishtirokchilarning tavsifiy ko‘rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan.

Olingan natijalar va ularni muhokama qilish. Jismoniy tarbiya universitetining “Boks nazariyasi va uslubiyati” kafedrasi talabalari va magistrantlarining professional boksning turli jihatlariga munosabati, ushbu yo‘nalishlarda orientatsiya darajasi, ta’lim yo‘nalishini qo‘llab-quvvatlashi hamda menejment sohasida oliy ta’limni davom ettirishga tayyorligi tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko‘ra, professional boks menejerlarini tayyorlashni, avvalo, mazkur kafedra bitiruvchilari va magistrantlari negizida tashkil etish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Respondentlarning sifat tavsifini aniqlash maqsadida anketaga talabaning ta’lim bosqichi, sport malakasi, so‘rovnoma o‘tkazilgan paytdagi sport faoliyati holati hamda ringdagi faoliyatini davom ettirishi yoki yakunlagani haqidagi savollar kiritildi. Anketa-so‘rovlar 2024 yilda o‘tkazildi.

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, respondentlarning yarmidan ko‘pi “Sport ustaligiga nomzod” va “Sport ustasi” sport unvonlariga ega bo‘lib, bu ularning amaliy tajribasi yuqori ekanini va professional boks menejmenti bo‘yicha mutaxassis tayyorlash uchun zarur boshlang‘ich salohiyat mavjudligini ko‘rsatadi.

1-jadval

Tadqiqotda ishtirok etgan talabalar va magistrlar kontingentining tavsiflari (%)

Kurs	Soni	I razryad	SUN	SU	XKSU	Musobaqalarda qatnashish	Yo‘q
Talabalar							
1	N=10	30	30	30	10	50	50
2	N=11	45,5	45,5	9	-	63,6	36,4
3	N=14	50	21,4	28,6	-	7,1	92,9
4	N=15	53,3	26,7	20	-	53,3	46,7
	Magistrlar						
1	N=4	30	70	-	-	20	20
2	N=6	50	37,5	-	12,5	12,5	87,5
Jami	N=60	44,1	36,8	16,2	2,9	39,7	60,3

Respondentlarning 39,7 % i hozirgi kunda musobaqalarda ishtirok etishni davom ettirmoqda. Bu holat anketa-so‘rovda qatnashgan talabalar va magistrantlar sport faoliyati nuqtai nazaridan yetarli malaka va muayyan ta’lim darajasiga ega ekanini ko‘rsatadi.

Taklif etilgan anketa mazmunan uch qismdan iborat bo‘ldi: birinchi va ikkinchi qismlar mazmuniy savollarni, uchinchi qism esa respondentlar haqidagi umumiy ma’lumotlarni o‘z ichiga oldi. Anketaning birinchi qismi talabalarning professional boksning turli jihatlari bo‘yicha bilim darajasini aniqlashga, ikkinchi qismi esa professional boks menejerlarini tayyorlash-

da oliy ta’lim tizimini takomillashtirish masalalariga bag‘ishlandi.

Birinchi qism savollariga berilgan javoblar tahlili shuni ko‘rsatdiki, respondentlarning mamlakatimizda professional boksning shakllanish bosqichiga oid bilimlari yetarli darajada emas. Xususan, professional bokschilarning mamlakatimizdagi ilk rasmiy bellashuvlari o‘tkazilgan sanani faqat uch nafar talaba to‘g‘ri ko‘rsata oldi. Ayrim anketalarda 1990–1991 yillar qayd etilgan bo‘lib, bu talabalar professional boksning boshlanish davri haqida faqat taxminiy tasavvurga ega ekanini bildiradi (2-jadval).

Navbatdagi savol respondentlarning mamlakatimizdagi mashhur professional bokschilarni bilish darajasini aniqlashga qaratildi. Talabalarga eng taniqli professional bokschilardan uchtasini nomlash taklif etildi. Ushbu savol orqali ularning professional boks muhiti, yetakchi sportchilar va sport industriyasiga oid axborot makonida qanchalik orientatsiya qilishi baholandi.

2-jadval

Talabalar va magistrantlarning professional boksdagi birinchi bellashuv sanasi haqidagi xabardorlik darajasi. (%)

Anketa savollari	talabalar				magistrlar		**Summar natijalar**
	bosqich				**bosqich**		
	1	2	3	4	1	2	
To‘g‘ri javob	-	-	-	13,3	-	12,5	4,4
Noto‘g‘ri javob	100	100	100	86,7	100	87,5	95,6

Mazkur bilim darajasini talabalarning professional boksga bo‘lgan qiziqishini ifodalovchi muhim parametr sifatida baholash mumkin.

3-jadval materiallari tahlili shuni ko‘rsatdiki, so‘rovda ishtirok etgan talabalarning barchasi professional boks musobaqalarida qatnashib kelayotgan mamlakatimizning mashhur bokschilarini ma’lum darajada bilishadi. Anketadagi ushbu savol respondentlar tomonidan ko‘rsatilishi mumkin bo‘lgan uch nafar bokschining familiyasi bilan cheklangan edi. Bu yondashuv talabalar professional boks muhitidagi yetakchi sportchilar haqida asosiy axborotga ega ekanini aniqlash imkonini berdi.

3-jadval

Tadabalarni professional bokschilar to‘g‘risida axborotga egalik darajalari (%)

Anketa savollari	Bakalavr talabalari				magistrlar		**Summar natijalar**
	bosqich				**bosqich**		
	1	2	3	4	1	2	
O‘zbek bokschilari							
1-bokschi familiyasi	-	-	7,1	6,7	-	12,5	4,4
2-bokschi familiyasi	-	18,2	7,2	13,3	10	12,5	10,3
3 -bokschi familiyasi	100	81,8	85,7	80	90	75	85,3
Aytishmadi	-	-	-	-	-	-	-
Xorijiy bokschilar							
1-bokschi familiyasi	-	9,1	7,1	-	-	-	2,9
2-bokschi familiyasi	-	18,2	14,3	13,3	30	-	13,2
3 -bokschi familiyasi	100	72,7	78,6	86,7	70	87,5	82,4
Aytishmadi	-	-	-	-	-	12,5	1,5

Shuni ta’kidlash joizki, olingan ma’lumotlar har bir sportchining mashhurligi yoki reytingini baholash uchun emas, balki talabalarning professional boks bo‘yicha muayyan masalalar yuzasidan axborotga egalik darajasini aniqlash maqsadida qo‘llanildi.

So‘rov natijalariga ko‘ra, respondentlarning 85,3 % i mamlakatimizdagi uch nafar mashhur professional bokschining nomini keltira olgan, 10,3 % i ikki nafarini, 4,4 % i esa bir nafarini ko‘rsatgan. Bu talabalar professional ringda faoliyat yuritayotgan bokschilar haqida yetarli axborotga ega ekanini ko‘rsatadi. Umuman olganda, respondentlar tomonidan olti nafar bokschining familiyalari tilga olingan bo‘lib, eng ko‘p uchraganlari: Artur Grigoryan (69,1 %), Ruslan Chagaev (42,6 %), shuningdek Muhammadqodir Abdullayev va V. Tanganbayev (har biri 33,8 %) bo‘ldi. Ayrim anketalarda professional faoliyatni yakunlagan bokschilar, masalan, Rustam Saidov ham qayd etilgan.

Xorijiy professional bokschilar bo‘yicha savolga javoblar ham yuqori darajadagi xabardorlikni ko‘rsatdi. Uch nafar bokschining nomini 82,4 % respondentlar, ikki nafarini 10,3 %, bir nafarini 4,4 % respondentlar keltirdi, faqat bitta ishtirokchi birortasini ayta olmadi. Eng ko‘p tilga olingan bokschilar Mayk Tayson (58,8 %), Roy Djons (45,6 %) va Muhammad Ali (26,5 %) bo‘ldi. Shuningdek, Oskar de la Xoya va Evander Xolifild (14,7 %), Lennoks Lyuis va aka-uka Klichkolar (13,2 %), Floyd Meyvezer (5,9 %) hamda boshqa

professional bokschilar nomlari qayd etildi. Xorijiy bokschilar familiyalarining ko‘pligi professional boksning ushbu mamlakatlarda ilgariroq rivojlanganligi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, natijalar talabalarning professional ringda faoliyat yuritgan va yuritayotgan bokschilarni yaxshi bilishini ko‘rsatadi. Ularning tanlovi, ehtimol, sportchilarning ringdagi muvaffaqiyatlari hamda ommaviy axborot vositalari, ayniqsa televideniye ta’siri bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, biroq bu jihat alohida tadqiqotni talab qiladi.

Professional boks murabbiylari bo‘yicha savol natijalari esa talabalar bu yo‘nalishda nisbatan kamroq ma’lumotga ega ekanini ko‘rsatdi. Respondentlarning 55,8 % i ikki nafar murabbiyning, 22,0 % i bir nafar murabbiyning familiyasini keltira oldi, 22,2 % i esa birorta murabbiyni nomlay olmadi. Bu holat talabalar orasida murabbiylar faoliyatiga qiziqish mavjud bo‘lsa-da, u haqdagi bilimlarni kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Anketalarda mamlakatimiz va xorijdagi professional murabbiylarning nomlarini keltirish taklif qilindi. Respondentlar tomonidan tilga olingan murabbiylar orasida T. Kilichev – 20,6 %, R. Ruziaxunov – 13,2 %, F. Kilichev – 13,2 %, Z. Toygonbaev va R. Xodjaev – har biri 11,8 % ni tashkil etdi. Umuman olganda, talabalar tomonidan 28 nafar mahalliy va xorijiy murabbiylarning familiyalari qayd etildi.

Xorijiy mutaxassislar orasida Freddi Rouch, Abel Sanches, Emanuel Styuard va Pedro Dias kabi taniqli murabbiylar tilga olingani respondentlarning professional boks murabbiylari haqida yetarli tasavvurga ega ekanini ko‘rsatadi. Bu holat talabalarning qiziqishlari va bilimlari doirasi kengligini namoyon etadi.

Anketa natijalari umumlashtirilganda, talabalar professional boks sohasiga oid asosiy ma’lumotlarga ega ekani aniqlandi. Shu bois, ularning professional boks bo‘yicha yangi axborotni qaysi manbalardan olishlari masalasi alohida qiziqish uyg‘otadi. Mazkur savolga berilgan javoblar asosida qayta ishlangan ma’lumotlar 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Talabalar professional boks to‘g‘risida yangi ma’lumotlarni oladigan axborot manbalari (%)

Axborot manbasi	Bakalavr talabalari				magistrlar		**Summar natijalar**
	bosqich				**bosqich**		
	1	2	3	4	1	2	
Boks nazariyasi va uslubiyati kafedrasi	10	72,7	14,3	46,7	20	75	38,2
Sport gazetalari	30	45,5	57,1	53,3	10	37,5	41,2
Sport jurnallari	10	27,3	21,4	20	20	25	20,6
Internet	90	81,8	64,3	53,3	80	87,5	73,5
Do‘stlar	20	54,5	50	33,3	20	25	35,3
Boshqalar	20	27,3	50	33,3	10	12,5	27,9

Avvalo shuni ta’kidlash lozimki, talabalar zarur axborotni olishda bir nechta manbalardan foydalanadilar. Eng asosiy axborot manbai Internet bo‘lib, respondentlarning 73,5 % i undan foydalanishini ko‘rsatdi. So‘rov ishtirokchilarining 41,2 % i professional boks haqidagi ma’lumotlarni sport gazetalaridan, 38,2 % i boks kafedrasidan, 35,3 % i esa do‘stlaridan olishini bildirdi.

Anketada ochiq javob uchun alohida qator qoldirilgan bo‘lib, uni to‘ldirgan respondentlarning 27,9 % i televideniyeni muhim axborot manbai sifatida ko‘rsatdi. Keyingi savol televideniye orqali professional boks janglarini tomosha qilish tajribasiga bag‘ishlandi. Natijalarga ko‘ra, respondentlarning 58,8 % i oxirgi marta professional boks janglarini televideniyeda ko‘rganini qayd etdi. Ularning 67,6 % i jang natijasini ham eslab qolganini bildirdi. Bu holat professional boks translyatsiyalari talabalar e’tiborini tortishini va ularning xotirasida saqlanib qolishini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, so‘rov natijalari talabalar professional boks haqida umumiy tasavvurga ega ekanini, uning tarixi va rivojlanish istiqbollari bo‘yicha ma’lum bilimga ega bo‘lishini hamda havaskor va professional boks o‘rtasidagi farqlarni anglashini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, professional boks tizimi bo‘yicha chuqurroq va tizimli bilimlarga ehtiyoj mavjudligi aniqlandi.

Mazkur holatning asosiy sabablaridan biri – “Boks nazariyasi va uslubiyati” fanida professional boks bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar uchun alohida o‘quv soatlari ajratilmaganligi hamda mavjud darsliklarda ushbu mavzuga kam e’tibor qaratilganligidir. Natijada talabalar professional boks haqidagi bilimlarni asosan mustaqil axborot manbalari orqali egallamoqda.

Shu munosabat bilan talabalarning o‘quv jarayoniga professional boks bo‘yicha maxsus kursni kiritish masalasiga munosabatini aniqlash muhim deb topildi. Ushbu savol bo‘yicha olingan natijalar 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

Talabalar va magistrlarni professional boks to‘g‘risida maxsus kurs zarurligi to‘g‘risidagi fikrlari (%)

Maxsus kursning zarurati	Bakalavr talabalari				magistrlar		Summar natijalar
	bosqich				bosqich		
	1	2	3	4	1	2	
Kerak	-	54,5	78,6	60	70	62,5	55,9
Javob berishga qiynalaman	30	36,4	21,4	33,3	30	25	29,4
Yo‘q, kerak emas	70	9,1	-	6,7	-	12,5	14,7

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, respondentlarning 55,9 % i professional boks bo‘yicha maxsus kurs joriy etilishi zarur, deb hisoblaydi. Ishtirokchilarning 29,4 % i bu savolga javob berishda qiynalgan bo‘lsa, 14,7 % i bunday kurs zarur emasligini bildirgan. Kurs bosqichi oshgani sari talabalar maxsus kurs zarurligiga ko‘proq ishonch bildirgan, magistrantlarda esa aksincha tendensiya kuzatilgan. Shunga qaramay, umumiy natijalar ishtirokchilarning aksariyati maxsus kursni joriy etishni qo‘llab-quvvatlashini ko‘rsatadi.

Mazkur ixtisoslik talabalari va magistrantlari uchun professional boks bo‘yicha maxsus kurs zarurligi bir necha omillar bilan izohlanadi: birinchidan, bu bo‘lajak mutaxassislarning professional kompetensiyasini kengaytiradi; ikkinchidan, menejerlik faoliyatini boshlash uchun zarur nazariy bilimlarni shakllantiradi; uchinchidan, ringdagi faoliyatini davom ettirayotgan talabalar professional boks tizimini chuqurroq tushunish va menejerlar bilan asosli muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Professional boks sohasida chuqur tayyorgarlik “Professional boks magistri” ta’lim dasturi doirasida amalga oshirilishi mumkin. Magistrlarni tayyorlash individual yondashuvni talab etadi va bu jarayonda talabalar mustaqil ta’limga tayyorligi, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga ajratiladigan vaqt hamda avvalgi tayyorgarlik darajasi inobatga olinishi zarur. Shu bois pedagoglar tomonidan magistratura mazmuni va talablari yuzasidan tushuntirish ishlarini olib borish muhim hisoblanadi.

O‘tkazilgan anketa-so‘rov natijalari professional boks menejmentini rivojlantirishning muhim pedagogik shartlaridan biri – talabalar va magistrantlarning ushbu yo‘nalishga bo‘lgan munosabatini aniqlash va hisobga olish ekanini ko‘rsatdi. Mazkur kontingent professional boks menejerlarini tayyorlash uchun real nomzodlar hisoblanadi. Respondentlar professional boks bo‘yicha ma’lum bilimga ega ekanini namoyish etdi va maxsus kurs ishlab chiqish hamda joriy etish zarurligini qo‘llab-quvvatladi, bu esa tegishli o‘quv-metodik majmua yaratishni talab qiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari professional boks menejmentini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri – malakali menejerlarni tayyorlash ekanini tasdiqladi. “Boks” ixtisosligi talabalari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov ularning professional boks bo‘yicha ma’lum bilimga ega ekanini, ushbu sohada kasbiy dunyoqarashni kengaytirishga intilishini hamda respondentlarning 44,1 % i professional boks menejmenti yo‘nalishida keyingi ta’limni davom ettirishga tayyor ekanini ko‘rsatdi.

Adabiyotlar:

1. Beshelev, S. D., & Gurvich, F. G. (1980). Matematiko-statisticheskie metody ekspertnykh otsenok. Moscow: Statistika.
2. Myakonkov, V. B., & Kruglova, T. E. (2004). Podgotovka studentov vuzov fizicheskoy kultury k rabote v dolzhnosti menedzhera. Teoriya i praktika fizicheskoy kultury, (12), 15–17.
3. Mardanshin, R. R. (n.d.). Razvitie menedzhmenta v professionalnom bokse. Retrieved from https://conf.sfu-kras.ru/sites
4. Obodovskaya, E. I. (n.d.). Menedzhment v bokse. Retrieved from https://dspace.khadi.kharkov.ua/bitstreams
5. Filippov, S. S., & Mikaelyan, I. I. (2010). Rezultaty issledovaniya soderzhaniya deyatelnosti menedzhera professionalnogo boksa. Uchenye zapiski, 4(62), 120–124.